

ISSN 2181 - 7367

**GULISTON DAVLAT
UNIVERSITETI**



**GULISTON DAVLAT
UNIVERSITETI
AXBOROTNOMASI**

**ВЕСТНИК
ГУЛИСТАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА**

**BULLETIN
OF GULISTAN STATE
UNIVERSITY**

2023 / 3

Gumanitar - ijtimoiy fanlar seriyasi

E-ISSN 2181 - 1172

Web site: www.guldu.uz
E-mail: guldu-vestnik@mail.ru

Юқоридагилардан келиб чикиб, халқаро ва маҳаллий олимларнинг тадқиқот натижаларини синтез қилиш замонавий педагогик ёндашувларга яхлит нуқтаи назарни тақдим этади. У маданиятлараро таққослаш, ушбу ёндашувларнинг қўлланилиши ва натижаларидаги умумийлик ва фарқларни аниқлаш имконини беради. Бундай тушунчалар маҳаллий эҳтиёжлар ва шароитларни ҳисобга олган ҳолда глобал таълим тенденцияларига мос келадиган таълим сиёсати, ўқув дастурларини ишлаб чиқиш ва ўқитувчилар малакасини ошириш дастурлари ҳақида маълумот бериш учун қимматли ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ботирова Ш.И. Адабий таълим кластерининг илмий-назарий асослари. пед.фан.док.дисс. Чирчиқ, 2021. –Б. 58.
2. Gottfredson, L. S. (1997). Why g matters: The complexity of everyday life. *Intelligence*, 24(1), 79-132.
3. Ericsson, K. A., Krampe, R. T., & Tesch-Römer, C. (1993). The role of deliberate practice in the acquisition of expert performance. *Psychological Review*, 100(3), 363-406.
4. Тиллаева Г.Х. Акмеология асослари. – Т.: Тафаккур бўстони, 2014, -Б. 31-бет.
5. Lawson, A. E. (2003). The nature and development of scientific reasoning: A synthetic view. *International Journal of Science Education*, 25(11), 1427-1448.
6. Meyer H., Klapper A. *Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren*. – Berlin, 2009
7. Запорожец А.В. Избранные психологические труды: Педология как сцена детского благополучия. В 2 т. М., 1986. – 320 с.

Муаллиф:

Ражабов Фурқат Туракулович - Чирчиқ давлат педагогика университети Туризм факультети декани, география фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент.

UDK: 372.881.11

THE ROLE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF READING LITERACY OF PRIMARY CLASS STUDENTS

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

РОЛЬ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Qayumova Shohsanam To'liqin qizi

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mikrorayon

E-mail: shoxsanamkayumova0523@gmail.com

Abstract. In this article, in order to improve and develop the reading literacy of elementary school students, through international assessment studies, that is, for example, with the PIRLS (Progress in International Reading Literacy study) research type, to improve the quality of students' reading comprehension levels, to use multimedia tools and importance, legal guarantees, highlighted.

Keywords: literacy, international assessment program, PIRLS, reading literacy, logical thinking, creative thinking, multimedia, ICT.

Аннотация. В этой статье в целях улучшения и развития читательской грамотности учащихся начальной школы посредством международных оценочных исследований, то есть, например, с помощью исследования типа PIRLS (Прогресс в международном исследовании читательской грамотности), улучшить качество успеваемости учащихся. уровни понимания прочитанного, использование мультимедийных инструментов и важность, правовые гарантии, выделены.

Ключевые слова: грамотность, международная программа оценки, PIRLS, грамотность чтения, логическое мышление, творческое мышление, мультимедиа, ИКТ.

Kirish. Jahonning rivojlangan mamlakatlari, xususan, Rossiya Federatsiyasi, Koreya, Germaniya, AQSH, Xitoy, Ispaniyaning universitetlari va ilmiy tadqiqot markazlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Bunday ishlar bilan birgalikda 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida «butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish» ustuvor vazifa sifatida belgilandi[1]. O'quvchilarga ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim jarayoniga AKT va elektron ta'lim resurslari ishtirokida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, fan va madaniy materiallarni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida o'qish savodxonligi sohasidagi tadqiqotlar asosida yoshlar o'rtasida o'qish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning texnologiyasi, metodikasi va uslubiy bazasini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, o'qish malakalarini shakllantirish va

rivojlantirish samaradorligini yanada oshirish maqsadida o'quv jarayoniga kompyuter, multimedia texnologiyalari, turli mediatexnologiyalar asosida o'qitishning interfaol usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Tadqiqot mavzusini yoritishda sohaga oid adabiyotlarni o'rganish, tavsiflash, qiyoslash, kompleks tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Multimedia ta'lim resurslari hamda xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish, ularni bazasini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar, metodlar ishlab chiqish asosiy maqsadlardan biridir.

Respublikamizda so'nggi yillarda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlash, dunyoqarashini kengaytirish, tevarakatrofda sodir bo'layotgan voqealarni idrok etish, multimedia ta'lim resurslari asosida o'quvchilarning savodxonligini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda.

Har tomonlama yetuk, intellektual, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, kelajak ta'lim asosi bo'lgan boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda ta'lim tizimining rolini o'rttirish imkoniyatlari ko'paymoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida ko'zda tutilgan "o'rta ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida"[2] konseptual negizi muhim ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar dasturlari asosida takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Har bir o'quvchi maktabga qadam qo'yar ekan birinchi navbatda o'qishni yozishni to'g'ri talafuz qilishni o'rganadi umumiy qilib aytganda savodxonligini oshiradi. O'qish va o'qish savodxonligi yillar davomida o'zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiya sohalarida o'z aksini topadi. O'qish faqat ta'limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o'zlashtiriladigan qobiliyat deb hisoblanmay qo'ydi. Chunki bugungi kunda bu qobiliyat shaxsning butun umri davomida turli xil kontekstlarda o'z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boriladigan bilim, ko'nikma va malakalar usullar jamlanmasi sifatida ta'riflanadi. O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarida ham yutuqlarga erishish uchun asos hisoblanadi. Birinchi navbatda o'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor berish, jumladan, uning ma'lumotlar tanlash, tushunish talqin qilish, va baholash tadqiqotining asosiy maqsadlaridan biri.

Savodxonlik hamma uchun tanish bo'lgan tushuncha. Savodxonlik bu asosiy kognitiv ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi bo'lib, ona tilida o'qish, yozish va matematik bilimlarning majmui. Ammo texnologiya va axboortlar murakkabligining rivojlanishi bilan biz uchun aniq bo'lgan savodxonlik tushunchasi kengaymoqda. Zamonaviy inson uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalarni tasniflashga urinayotgan xalqaro tashkilotlar raqamli, axborot va ilmiy savodxonlikning ahamiyati haqida gapirishadi. Ko'pincha bu turdagi savodxonlik bir -birini to'ldiradi[3].

O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati ham hisoblanadi. Boshlang'ich savodxonlik tushunchasi o'qish va yozishni dastlabki o'rganish uchun ishlatiladi. Savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harflarni tanishtirish ularni to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimni boyitish, tafakkurni shakllantirish, eshitish qabul qilish sezgisini o'stirishda ham mas'uliyatligi bilan alohida o'rin tutadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ta'lim olish imkoniyati savodxonlikka bog'liq bo'lganligi va buning albatta huquqiy normalar mavjudligini ham alohida ta'kidlash lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-22-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yilning 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonlari, 2022-yil 3-fevraldagi PF-22-son "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Shuningdek, muxtaram Prezidentimiz tomonidan "Uzluksiz ta'limni rivojlantirish uchun bir qancha chora tadbirlar ko'rilmogda, yangiliklar kiritilmoqda va qarorlar qabul qilinmoqda. Bularning isboti sifatida xalqaro baholash tadqiqotlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida "PISA" (The Programme for International Student Assessment) o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021-yilda birinchi 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka va 2030-yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan[4]. Masalan O'qish savodxonligini baholash uchun PIRLS tadqiqoti. PIRLS (Progress in International Reading Literacy study) bu tadqiqot turi 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajalari sifatini xalqaro baholash tizimi hisoblanadi[4]. PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtda

o'qishni ikki turini baholaydi: 1. O'quvchilarning adabiy tajribasini baholash maqsadida o'qish. 2. Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra [5], o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati ham hisoblanadi. PIRLSning eng yuqori darajasi 625 ball va undan yuqori bo'ladi. O'quvchilar matnni yaxlit tushuna oladi va matn qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi. Fikrimizni matn orqali izohlashimiz mumkin. O'quvchilarga matnni o'qib, mazmunini sharhlab berish, undagi uyushiq bo'laklar va umumlashtiruvchi so'zlarni topib, izohlash topshiriladi.

Ushbu maqola doirasida bir qancha ilmiy yangiliklar aks ettirilganligini ham izohlash mumkin. Jumaladan: boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda multimedia elektron didaktik resurslarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini o'quv dasturida tavsiya etilgan matnlardagi so'z va iboralarining ma'nosini tushunish, lug'atdan foydalana olish, matn mohiyatini aniqlay olish darajalariga moslashtirish asosida takomillashtirilgan; boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi multimedia elektron ta'lim resurslari asosida oriyentativ, integrativ, interpretativ prinsiplar hamda xalqaro baholash dasturlariga mosligini tanqidiy-mantiqan aniqlash hamda interaktiv va texnologik omillar transformatsiyasi orqali takomillashtirilgan; boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi PIRLS xalqaro baholash dasturidan maqsadli foydalanishni bosqichli ravishda tashkil qilish hamda o'qish savodxonligi darslarining samaradorligini oshiradigan multimedia ta'lim vositalarini yaratishning pedagogik shart-sharoitlarini barqarorlashtirish asosida takomillashtirilgan; o'quvchilarning o'qish savodxonligi rivojlantirish jarayoni analitik va konstruktiv-ijodiy vazifalarga integratsiyalash hamda innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirishga qaratilgan dasturiy va texnologik ta'minotning variativligiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Maqolada ilgari surilgan mavzu bo'yicha natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida multimedia elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladigan bilim, axborotlarni taqdim etish vositalari, yo'llari va usullarini takomillashtirishni o'qitish sifatiga oid ko'rsatkichlar tizimi asosida tashkil etish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi PIRLS xalqaro baholash dasturidan maqsadli foydalanishni bosqichli ravishda tashkil qilish, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanini multimedia elektron axborot ta'lim resurslari asosida takomillashtirish bilan izohlanadi. Shuning bilan birga, mavzu bo'yicha natijalarining amaliy ahamiyatiga kelsak, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarini multimedia elektron axborot ta'lim resurslari asosida o'qitish jarayonini osonlashtirishda, o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, umumta'lim maktablarida darslik, metodik qo'llanma yaratishda foydalanish mumkinligi, boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.



1-rasm. O'quvchilarda o'qish savodxonligini multimedia orqali rivojlantirishning asosiy tamoyillari.

Xorij olimlarining tadqiqotlariga ko'ra D.Johnson o'qishni o'quvchining butun maktab ta'limi davomida muvaffaqiyatga erishishining asosiy sabablaridan biri deb hisoblaydi. Uning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, bola qanchalik iqtidorli bo'lmasin, o'qishga qiziqmasa, ta'lim samarasi bo'lmaydi. Ushbu g'oyadan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, o'qish savodxonligi nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki o'quvchining umumiy ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga egadir. O'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish esa, uning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga sabab bo'la oladi.

O'z tadqiqotida I.V.Demina o'qish savodxonligini quyidagicha tavsifladi: o'qish savodxonligi insonning tabiiy ehtiyojlaridan biri bo'lib, u kelajakda yosh avlodning o'z-o'zini rivojlantirishini, ijtimoiy muhitga kirish imkoniyatini va o'zini o'zi anglashini ta'minlaydi. O'quv jarayonida o'qish savodxonligini rivojlantirish o'quvchilarga kelajakda kerakli bilimlarni oson egallashga, ularni hayotda maqsadli qo'llashga, kerakli ma'lumotlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy yetukligi qiyin vaziyatlardan osongina chiqish yo'lini topish uchun tezkorlik va zukkolikni talab qiladi. Bu sifatlar bevosita multimedia namunalaridan samarali foydalanish jarayonida shakllanadi. Bu, o'z navbatida, fanlarni o'rganish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tizimidagi mavjud muammolarni hal yetishga yo'l ochadi. Ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarda o'qish savodxonligini oshirishning asosiy tamoyillarini to'liq amalga oshirish imkonini beradi (1-rasm).

Boshlang'ich sinflari o'quvchilarini o'qish savodxonligini rivojlantirish borasida bir qancha tavsiyalarni ishlab chiqish ham maqsadga muvofiq deb topilmoqda. Shu munosabat bilan, "O'qish savodxonligi" fani bo'yicha quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqilishiga erishildi: o'quv dasturlari va darsliklarini yaratishda ularning mazmuni o'quvchilarning

o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi va ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar (PISA, PIRLS) natijalari asosida fan yutuqlarini singdirish bo'yicha tatbiqiy jihatlarni o'zlashtirish va adaptiv variantlarni ishlab chiqish zarur; yaratilgan multimedia elektron axborot ta'lim dasturlarini zamonaviy didaktik metodlar bilan boyitish va zamonaviy elektron texnologiyalar yordamida takomillashtirish zarur; multimedia elektron axborot ta'lim dasturlaridan samarali foydalana olish bo'yicha umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar, ilmiy-amaliy yondashuvlar ishlab chiqilishi hamda tegishli soha mutaxassisliklarini tayyorlashda oliy ta'lim muassasalariga joriy qilinishini ta'minlash zarur.

Xulosa qilib aytganda pedagoglarimiz uchun bugungi kunda juda ko'p vazifalar yuklatilgan shu jumladan pedagogik mahoratga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi va darsning samaradorligini oshirish uchun turli hil metodlardan foydalana olishi kerak. Shulardan xulosa chiqargan holda o'qish savodxonligini oshirish uchun ham dars davomida PIRLS savollariga tayyorlab borishi kerak. O'qish darslarida biror bir hikoya yoki ertakni o'quvchilar o'qigandan so'ng mustaqil fikrlarini doimiy eshitib borish kerak va bu ham o'z navbatida o'quvchi agar noto'g'ri fikrlayotgan bo'lsa sinfdoshlarining to'g'ri fikrlarini eshitib o'zi uchun kerakli hulosalarni chiqaradi. Chunki har bir o'quvchining fikrlash doirasi har hil bo'ladi. Shu jumladan o'quvchilarning fikrlash doiralari rivojlanishi ya'ni o'sishi uchun badiiy kitoblarni o'qish tafsia qilish kerak. Avvalo badiiy kitoni o'quvchilarga o'qishmi tafsia qilar ekan, o'qituvchi birinchi navbatta o'zi o'qishi kerak. Chunki ukitob shunchaki o'qilibgina qolmay uning tahlili ham bo'lishi kerak. O'qish savodxonligini oshirishda PIRLSning ahamiyati shundan iboratki, qay darajada matnni o'qib tushuna olishini, qay darajada fikrlay olishini bilib oladi va o'ziga o'xshagan chet ellik tengdoshlarining natijalarini bilib solishtiradi va yanada olg'a intilishga harakat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni.
3. Mirzayev A.O'. O'quvchilarning raqamli dunyoda o'rganish konsepsiyasi bo'yicha savodxonligini rivojlantirish. Scientific Progress. Volume 2. ISSUE 8 | 2021.P.832
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
5. Mirzayev A.O'. Mamlakatimiz ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari. Academic Research in Educational Sciences. VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021
6. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. Toshkent: Sharq, 2019.
7. Kayumova S. Didactic principles for developing native language and reading literacy of future primary school teachers //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B9. – C. 57-60.

Muallif:

Qayumova Shohsanam To'liq qizi – Guliston davlat universiteti, Boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).

E-mail: shoxsanamkayumova0523@gmail.com

УДК 372.881.111.1

METHODS OF APPLYING DIDACTIC PRINCIPLES IN ENGLISH CLASSES

ИНГЛИЗ ТИЛИ МАШҒУЛОТЛАРИДА ДИДАКТИК ТАМОЙИЛЛАРНИ ҚЎЛЛАШ УСУЛЛАРИ

МЕТОДЫ ПРИМЕНЕНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Норимова Гулжахон Абдуғаниевна

Гулистон давлат университети, 120100. Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳри, 4-мавзе.

E-mail: guljahon.uz@googlemail.com

Abstract. The article is about the scientific and theoretical basis for the development of students' scientific competencies on the basis of streaming technologies, their scientifically substantiated proposals to improve them on the basis of modern requirements and the combination of quality and effectiveness of education. The organization of streaming technologies in English lessons is based primarily on the classical classified principles of didactics. In this case, the principles of education can be divided into two groups: content-related and organizational-methodological principles of education. Streaming technologies are about students who focus on the comprehensive formation and development of the individual by updating the content, principles, forms and methods of educational activities of students, ensuring their interaction and unity.